

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон  
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,  
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик  
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия  
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2020-11  
Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Бош мухаррир:**

Абдуллаев Икрам Исакандарович, б.ф.д., проф.

**Бош мухаррир ўринбосари:**

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

**Таҳир ҳайати:**

Абдуллаев Икрам Исакандарович, б.ф.д., проф.

Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.

Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.

Абдуҳалимов Баҳром Абдураҳимович, т.ф.д., проф.

Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.

Бабаджанов Ҳушнумт, ф.ф.н., проф.

Давлетов Санжар Ражабовиҷ, тар.ф.д.

Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.

Дўсчанов Баҳтиёр, тиб.ф.д., проф.

Ибрагимов Баҳтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.

Қодиров Шавкат Юлдашевич, қ/х.ф.н.

Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.

Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.

Мирзаев Сироҷиддин Зайнисеҷи, ф-м.ф.д., проф.

Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.

Рӯзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.

Рӯзимбоев Сапарбой, ф.ф.д., проф.

Рӯзметов Баҳтияр, и.ф.д., проф.

Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.

Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.

Сироҗсов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.

Сотипов Гойитназар, қ/х.ф.д., проф.

Токсибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик

Холматов Баҳтиёр Рустамович, б.ф.д.

Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.

Шакарбоев Эркин Бердиқулович, б.ф.д., проф.

Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.

Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.

Ўразбоев Гайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.

Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.

Ҳажсиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси аҳборномаси: илмий журнал.-№11(68), Хоразм  
Маъмун академияси, 2020 й. – 314 б. – Босма нашрнинг электрон вариантни -  
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм  
Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2020

qadriyatlarning o'rn'i .....	102
<b>Абдримов Б.М.</b> Хазария ва Булғордаги хоразмликлар .....	104
<b>Абдуллаев З.</b> Туркистонда зўрлиқка, мусодарага йўналтирилган қарорлар .....	109
<b>Аззамходжаева Ш.С.</b> Нажмиддин Кубронинг ватанпарварлик рамзи ёшлар учун ибрат намунаси .....	112
<b>Амонов М.У.</b> XVIII–XIX асрларда Марказий Осиёда накшбандия-мужаддиция тариқати билан боғлиқ меъморий ва эпиграфик маълумотлар .....	114
<b>Гаффоров Я.Х.</b> Буюк ишак йўли – илм-фан ва маданиятлар бирлашуви йўлидир .....	123
<b>Гуломов Х.Ғ., Кенжава Н.С.</b> Помир баланд тоғ экспедициясининг ташкил этилиши, тузилиши ва аҳамияти .....	125
<b>Ибрагимов Б.</b> Қорақалпоғистон янги тарихи юрт фидойилари хотирасида .....	129
<b>Косымбетова Д.</b> Латинизация в Каракалпакстане 1928–1940-е годы .....	134
<b>Махмудова Н.Б.</b> «Кризы» и «кризисные» суды .....	137
<b>Мирзаев Б.Н.</b> Барокхон ёхуд Наврӯз Ахмадхон шахсининг ёзма манбалардаги тасвиғи .....	139
<b>Нарманов Ф.А.</b> XX асрнинг 20-30 йилларида кизил чойхоналар фаолияти .....	141
<b>Нормуродова Г.Б., Ахмедова З.</b> XIX аср иккинчи ярми - XX аср бошларида Самарқанд вилоятининг баъзи демографик масалалари хусусида .....	144
<b>Нуруллаева Н.К.</b> Культурное взаимовлияние и взаимообогащение народов Хорезмского оазиса .....	147
<b>Расуловна Н.С.</b> Сиёсий партиялар шаклланишининг объектив зарурати .....	149
<b>Рашидов Ш.Т.</b> СССРдаги “Иликлик” ва унинг Ўзбекистондаги ижтимоий ҳаётга кўрсатган таъсири .....	152
<b>Санткасимов А.</b> Марказий осиё алломалари илмий қарашларида инсон ва жамият муносабатлари таҳлили .....	155
<b>Тожиева Ф.</b> Хива хонлигидаги кўччилик муносабатлари .....	158
<b>Торениязов Ж.</b> Научное исследование истории каракалпаков, проживавших в Южном Приаралье .....	160
<b>Тўпчиев У.С.</b> Туркистон ўлкаси иқтисодиётида виночилик саноатининг ўрни .....	162
<b>Турдалиев Ж.Р.</b> Илк ўрта асрларда Суғдда шишасозликнинг ривожи .....	164
<b>Хайтов Б.Т.</b> Ёшлар маънавиятини юксалтиришда жадид адилбарлининг ўрни .....	167
<b>ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<b>Axmedova Sh.M.</b> The basis of teaching speaking in literature .....	170
<b>Bozorov S.</b> Badiiylik mezonlari va konflikt talqini .....	171
<b>Donieva D.P.</b> Effective ways of teaching gemitant consonants in Uzbek and English languages .....	174
<b>Haydarova D.</b> Improving the methodology of teaching English .....	175
<b>Husanova R.X.</b> Fariduddin Attor asarlari g'arb olimlari tadjiqotlari talqinida .....	177
<b>Islomov D.Sh.</b> Abdulla Qodiriyning hayoti va uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi .....	179
<b>Kabulova G.U., Kim S.T.</b> Erkin A'zam nasrida kinoya va uning ko'rinishlari .....	181
<b>Komilov J.K</b> Process of forming alphabetic system for successful communication .....	183
<b>Kudratova Sh.K.</b> Tarjimani nazmiy va nasriy bayon etilishi .....	185
<b>Nashirova Sh.B., Nashirova D.B.</b> Innovative methods of distance language teaching for non-philological faculties .....	186
<b>Odinayeva N.</b> Motivation and communication in distance learning of foreign languages .....	188
<b>Pulatova N.</b> Innovative approach to teaching a foreign language .....	189
<b>Radjabov R.R.</b> Moyens d'exprimer du sens futur dans les constructions hypothetiques .....	191
<b>Rakhimova M.T.</b> The use of authentic materials in teaching german .....	193
<b>Raxmonov D.X.</b> Nutq texnikasi .....	194
<b>Safarova Z.R.</b> Development and formation of media-competence in teaching foreign languages .....	196
<b>Saidova M.U.</b> Kris Boldikning “The concise Oxford dictionary of literary terms” lug'atidagi adabiyotshunoslik terminlarining semantik tahlili .....	198
<b>Saidova Z.U.</b> Organization of the educational process in the framework of a multi-level approach to teaching English .....	200
<b>Tursunova M.E.</b> Ispan tilida omofonlarning berilishi .....	202
<b>Tursunova M.E.</b> Ispan tilida rang belgilaring grammatik xususiyatlari .....	204
<b>Абдурахманова М.У.</b> Тиббий терминологияда юонча-лотинча ўзлаштирма сўзлар .....	205
<b>Адамбаева Н.К.</b> “Фирдавс ал-иқбол” асарининг Ю.Брекель таржимасига хос хусусиятлари .....	207
<b>Бобоҷонова Н.</b> Ҳабиб Саъдулланинг “Юсуф ва Зулайҳо” драмасида анъанавий сюжет талкини	210
<b>Бобокалонов П.Р.</b> Каноник моделли нутқий ҳосилаларнинг толерантлик аксиомаси тадрижий ривожи билан боғлиқлиги .....	214
<b>Газиева М.М.</b> Нутқ темпининг функционал белгилари хусусида .....	217
<b>Дўстова С.С.</b> “Тазкираи шуаро”нинг яна бир кўлёзмаси .....	220
<b>Зокирова Н.С.</b> Теория транслатологии: от переводческой традиции к транслатологии .....	222
<b>Икрамова X.М.</b> Из истории становления клинических терминов .....	225

- 2.Nyuman, R. J. (2009, 13 dekabr). Klassik Eron she'riyatining tarjimasi: Farid al-Din Attar. <http://www.richardjnewman.com>
3. Arberry, A. J. (1966). Musulmon avliyolarli va ilohiyotchilari. London va Boston.
- 4.Pingvin. Fars News Agency. (2012 yil, 22-dekabr). <http://www.farsnews.com>
- 5.Tebyan. (2008, 15 aprel). <http://www.tebyan.net>.

UDC 81-13

**ABDULLA QODIRIYNING HAYOTI VA UNING O'ZBEK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI**  
**(“O'tkan kunlar” romanini misolida)**  
*D.Sh. Islomov, o'qituvchi, Buxoro Davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** “O'tkan kunlar” romanining ma'no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiylar qalamga olingan. “O'tkan kunlar” bami soli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoiti, vaziyatdagi turmushi, urfatlari, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lama aniq-ravshan gavdalantiriladi. Romandagi uchlik – oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi.

**Kalit so'zlar:** realistik nasr, romanchiliq, ideologlar, kommunistik partiya, fojaviy sevgi, ishq-muhabbat, ruhiy-ma'naviy

**Аннотация.** Роман «Минувшие дни» имеет очень широкий диапазон значений. Он занимается разными судьбами, социально-политическими, духовно-нравственными, семейно-романтическими проблемами. «Минувшие дни» - это огромное и чистое зеркало, в котором широко отражены конкретные исторические условия, ясно воплощены быт, обычай, духовный мир, рост и образ узбекского народа.

**Ключевые слова:** реалистическая проза, роман, идеологи, коммунистическая партия, трагическая любовь, романтика, духовность

**Annotation.** The novel "Days Bygone" has a very wide range of meanings. He deals with various destinies, socio-political, spiritual and moral, family and romantic problems. "Bygone days" is a huge and clear mirror, which broadly reflects specific historical conditions, life, customs, spiritual world, growth and image of the Uzbek people, clearly embodied. The trinity in the novel is a lover, a lover and a gentleman, which at first glance resembles traditional love stories.

**Key words:** realistic prose, novel, ideologists, communist party, tragic love, romance, spirituality

**Kirish.** Abdulla Qodiriy – XX asrning yangi o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasasi, o'zbek romanchiliginining asoschisi, 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Bog'bon oilasida tug'ilgan. Otasi Qodirboboxon, beklar qo'lida sarbozlik qilgan, rus bosqini paytida Toshkent mudofaa sida qatnashgan. Otasi boshidan o'tgan sarguzashtlar Abdulla Qodiriyning qator asarlari, xususan tarixiy romanlarining yuzaga kelishiha muhim rol o'ynagan. Abdulla Qodiriy musulmon muktabida, rus-tuzem muktabida, Abulqosim shayx madrasasida ta'lim oldi. Moskvadagi adabiyot kursida o'qidi. Yoshligidanoq qadimgi Sharq madaniyati va adabiyoti ruhidha tarbiya topgan hamda arab, fors va rus tillarini mukammal o'rgangan o'zbek yozuvchisi. Jahon adabiyotini ixlos bilan mutolaa qilgan. 1920-yillar boshida Abdulla Qodiriy birinchi o'zbek romanini bo'lmish „O'tkan kunlar“ni yozadi. 1922-yili ilk bor „Inqilob“ jurnalida chop etilib, 1926-yilda esa alohida kitob holida chiqadi.

Roman XIX-asr voqealarini o'z ichiga qamrab olgan. Murakkab tarixiy hodisalar romanning bosh qahramonlari Otabek va Kumushbibining fojaviy sevgi qissasi atrofida ifodalangan. Voqealar rivoji mahalliy hukmdorlarning hokimiyyat uchun qonli kurashlari muhitida kechadi. Boshqa yirik epik asarlardagi kabi „O'tkan kunlar“da ham hikoyanavislikning ko'p planliligi, ikkilamchi syujetlar mavjudligi, ketma-ket avj oluvchi va fojiali yakun topuvchi voqealar bilan to'qnashamiz.

Ilg'or fikrlarni olg'a suruvchi Otabek obrazi romanning g'oyaviy va kompozitsion markazi hisoblanadi. U ochiqcha savdodagi eskirgan iqtisodiy munosabatlarga qarshi chiqib, oila va turmush muammollariga yangi qarashga amal qilardi. Otabek va eskilikka yopishib olib, yurt rivojini ortga suruvchi kuchlar o'rtaida mojararo sodir bo'ladi. Abdulla Qodiriy o'z qahramoni nomidan o'zining shaxsiy o'yifikrlarini so'zlaydi.

**Asosiy qism.** „O'tkan kunlar“ o'ziga xos va iqtidorli o'zbek adabiyotining oltin fondiga kirib, yangi realistik nasrqa asos soldi. Keyinchalik mashhur sharqshunos akademik Yevgeniy Bertels: „Qodiriy romanlari butun tarkibi bilan o'ziga xos uslubda yozilgan o'zbek romanlaridir. Dunyoda beshta, ya'ni: fransuz, rus, ingliz, nemis va hind romanchiligi maktablari bor edi. Endi oltinchisini, ya'ni o'zbek romanchilik muktabini Abdulla Qodiriy yaratib berdi“, deb yozgan.

Turkman yozuvchisi Xidir Deryayev shunday yozadi: „Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ romanini menda bir umrga unutilmas taassurot qoldirgan va ilhom bag'ishlagan. Shundan keyin menda turkman xalqining o'tmishi haqida roman yozish ishtyoqi tug'ildi. Katta niyat bilan „Qismat“ romanim ustida ish boshladim“.

O'zbek yozuvchisi Tohir Malik ham shunday deb yozgan: Ularning jisman mahv etilganlariga ellik olti yil bo'libdi. O'shanda hazrat Abdulla Qodiriy qirq to'rt yoshda ekanlar. «O'tkan kunlar» romanining yozilganiga esa yetmish yil bo'ldi. Yozuvchi bilan birga asarga ham kishan urdilar. Asarni ham o'limga

mahkum etdilar. Haq yo'lidagi asarni hech qanday hukmdor hech bir zamonda mahv etolgan emas. Abdulla Qodiriy ham, u zotning asarlari ham tirik qolaveradi.

Yozuvchi bu romanni yozishdan oldin hayotdagи barcha qiyinchiliklarni,adolatsizliklarni, nohaqliklarni, urushlarni, xalqning azoblarini ko'rib, bularni asar orqali ko'sratib berishni maqsad qilgan. Asarni boshlashdan oldin yozuvchi shunday degan: Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydiq, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchiliq, ro'monchiliq va hikoyachiliklarda ham yangarishg'a, xalqimizni shu zamonning „Tohir-Zuhra“lari, „Chor darvesh“lari, „Farhod-Shirin“ va „Bahromgo'r“lari bilan tanishdirishka o'zimizda majburiyat his etamiz.

Yozmoqg'a niyatlanganim ushbu — „O'tkan kunlar“ yangi zamon ro'monchiligi bilan tanishish yo'lida kiehkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi — ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong'a chiqishi, ahllarining yetishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tab'i'y bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim. Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydir. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kurnlardan, tariximizning eng kirlilik, qora kunlari bo'lg'an keyingi „xon zamonlari“ dan belguladim.

„O'tkan kunlar“ o'ziga xos va iqtidorli o'zbek adabiyotining oltin fondiga kirib, yangi realistik nasrga asos soldi. Keyinchalik mashhur sharqshunos akademik Yevgeniy Bertels: „Qodiriy romanlari butun tarkibi bilan o'ziga xos uslubda yozilgan o'zbek romanlaridir. Dunyoda beshta, ya'ni: fransuz, rus, ingliz, nemis va hind romanchiligi maktablari bor edi. Endi oltinchisini, ya'ni o'zbek romanchilik mакtabini Abdulla Qodiriy yaratib berdi“, deb yozgan.

Turkman yozuvchisi Xidir Deryayev shunday yozadi: Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar“ romani menda bir umrga unutilmas taassurot qoldirgan va ilhom bag'ishlagan. Shundan keyin menda turkman xalqining o'tmishi haqida roman yozish ishtyoqi tug'ildi. Katta niyat bilan „Qismat“ romanim ustida ish boshladim“.

„O'tkan kunlar“ romani xalq tomonidan qanchalik sevib o'qilsa, sho'ro hukumati ideologlari, kommunistik partiyaga moyil kishilar, adabiy tanqidchilar tomonidan shunchalik qoralangan. Tanqidarning asosini asarning markscha-leninch g'oyalarga zid ekanligi, asarda burjua sinfiy kurashi, boylar tomonidan kambag'allarni ezish sahnalar ko'rsatilmaganligi, o'zbekning o'tmishi bezab ko'rsatilganligi va bu bezaklar sovetlar qoralayotgan inqilobgacha bo'lgan davrni odamlar ko'ziga juda chiroyli qilib ko'rsatishi kabi iddaolar tashkil etadi.

1928-yilda rus tanqidchisi Mixail Sheverdin „O'tkan kunlar“ asari haqidagi tanqidiy maqolasiga xulosa o'rnida shunday yozadi: „Romanni rus tilida chop etish kerakmi? – Bizningcha, kerak. Masala – qanday chop etishda. Uni ekzotik tipdagi qiziqarli asar sifatida chop etishga qarshi kurashmoq kerak. U bizga o'zbeklarning turmushi, qiziqishlari va o'sib kelayotgan o'zbek adabiyoti bilan tanishish vositasi sifatida kerak. Lekin bu nashrni o'zbek tilidagi qayta nashr kabi biroz boshqacharoq tarzda – eng avvalo davrning asl holatini yorituvchi, savdo kapitalining rolini o'chib beruvchi, muallifning o'tmishni ideallashtirishga urinishlari qanchalar xato ekanini ko'rsatuvchi tanqidiy maqola kerak. Romanning alohida o'rinaliga e'tirozlar bildirmoq lozim. Muallifning ideologik og'ishlarini zararsizlantirgandan so'nggina, ushbu asarni rus kitobxoniga tavsiya etish mumkin“.

„O'tkan kunlar“ romani haqida eng katta adabiy-tanqidiy materialni 1929–1930-yillarda Sotti Husayn yozadi. U asarni o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, badiiy ijodni mavjud sho'rolar hokimiyyati manfaatlari xizmat qildirish nuqtai-nazaridan tahlil qiladi. Shu bois adibning mahorati, so'z ustasi ekanligi, asarning sevib o'qilishini inkor qilmagan holda asarni markscha-leninch mafkura targ'ibotchisi bo'Imagani uchun keskin tanqid qiladi. Xususan, tanqidiy maqolalaridan birida u shunday yozadi: „Yozuvchilarimizning birmunchalari „O'tkan kunlar“ni o'qib, tilidan ancha foydalab ish ko'rayotqanlari ochiq ma'lum. Bundan ko'z yumish bo'imas. „O'tkan kunlar“ mafkuraviy, axloqiy tomonidan bizga zararli bo'lishi bilan baravar, adabiy tilimizing takomili yo'lida ancha foydalidir.

Abdulla Qodiriy „O'tkan kunlar“ romanini yozish bilan o'zbek romanchilik mакtabiga asos soldi. Yuksak talant egasi – yosh adib qalami ostidan chiqqan birinchi o'zbek romani favqulodda bir muvaffaqiyat va shuhrat qozondi. Romanning boshidagi bir qancha fasl dastlab „Inqilob“ jurnalining 1923 yilgi fevral-mart qo'shma sonida bosiladi. Keyin kitob holida nashr etilib, qo'ima-qo'l o'qiladi. „O'tkan kunlar“ yaratilgan davr o'zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o'rni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or bir ziyyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri ustida astoydil qayg'urdi, o'zicha najot yo'lini izladi. Zamon taloto'plari adib qalbini iztirobga soldi. „O'tkan kunlar“ romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi bo'ldi, „tariximizning eng kir, qora kunlari“ – yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi noahil „xon zamonlari“ to'g'risida so'z o'chib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi.

#### Xulosa

„O'tkan kunlar“ romanining ma'no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamiga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin, el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosiy pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'lida hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi.

“O’tkan kunlar” bamisolı ulkan va tiniq ko’zgu, unda o’zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko’lamda aniq-ravshan gavdalantiriladi. Romandagi uchlik – oshiq, ma’shuqa va ag‘yor, bir qarashda, an’anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Abdulla Qodiriy Otabek bilan Kumushning ishq tarixini yozar ekan, ayni damda o’lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g‘oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Elif Batuman The Possessed: Adventures with Russian Books and the ...1847083137 2011 "literary-historical landmark I had been waiting for: the emergence of an indigenous novel form. Abdulla Qodiriy's Past Days, considered to be the first Uzbek novel, was serialized in the magazine Inqilob in 1922-25. "
2. Abdulla Qodiriy. „O’tkan kunlar“ ham o’tkan kunlar“ tanqidi ustida ba’zi izohlar. Sharq haqiqati, 1929-yil, 218-son
3. Bayram Rahimguliyev The fate of the first Turkmen novel: From the Bloody Claw ... — 2009 — Page 40 O ‘tgan Kunlar (Days Gone By) by Abdulla Qodiriy, Quluq Qon (Holy Blood) by Muso Toshmuhammadogli Aybek and Tushda ...
4. Фарҳад Хамраев. У истоков узбекского романа. <https://www.kultura.uz>. 16 Июля 2014.
5. Yevgeniy Bertels. „Sovet O’zbekistoni“ gazetasi, 1967-yil 2-iyundagi soni
6. Хидир Деряев. Эдебият ва сунгат. 1962 йыл 12 ноябр
7. Михаил Шевердин. Первый узбекский роман (А. Кадыри. «Уткан кунлар» («Прошлые дни»). Журнал «За партию», 1928 год, 3 (7) номер.
8. Habibulla Qodiriy. Otamdan xotira (Otam haqida). Abdulla Qodiriy asarlari to‘plami, „Adibni xotirlab“ qismi (5-kitob). Info Capital Group, Toshkent, 2017. 172–173-betlar